

“Ayollarning energetika sohasidagi o‘rni: zamonaviy tendensiyalar” mavzuida o‘tkazilgan an’anaviy forum to‘g‘risida



17 may kuni “Hududiy elektr tarmoqlari“ AJda Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi hamda Osiyo tarraqiyot banki hamkorligida “Ayollarning energetika sohasidagi o‘rni: zamonaviy tendensiyalar” mavzusida an’anaviy forumi bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda Osiyo tarraqiyot banki, O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar Qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, neft-gaz va geologiya xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi vakillari, shuningdek, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ ijro apparati xodimalari va filliallardagi xotin-qizlar masalalari bo‘yicha boshlang‘ich tashkiloti raislari/gender masalalari bo‘yicha Maslahat kengashi raisi o‘rinbosarlari ishtirok etishdi.



O'zbekiston respublikasining 2019 yil 2 sentyabrdagi "xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonuni tasdiqangan bo'lib, mazkur qonunning 13-moddasi hamda o'zbekiston respublikasi oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining tavsiyasiga ko'ra, "hududiy elektr tarmoqlari" AJ va uning tarkibiy korxonalarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat kengashlari tuzildi.



Uning asosiy vazifalari etib huquq va erkinlikning barcha jabhasida xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida tenglik imkoniyatlarini yaratish, xotin-qizlar manfaatlarini ta'minlash ishlarini nazorat qilish, mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqib, ularni amalga oshirish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish masalalari belgilangan.



Xotin-qizlar salomatligini asrash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, milliy genofondni yaxshilash maqsadida, tarkibiy korxonalar ayol xodimlarini tibbiy ko'rikdan o'tkazish bo'yicha amaliy ishlar olib borildi.

Shuningdek, ayol xodimlarning ishdan bo'sh vaqtlarini maroqli o'tkazishlari hamda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maqsadida dam olish maskanlari, yurtimizning qadimiy shaharlari va ziyoratgohlariga sayohatlar tashkil etildi.



“Hududiy elektr tarmoqlari” AJda bugungi kunda Jamiyat va uning tarkibidagi 15 ta hududiy filial hamda 2 ta hududiy korxonalarida jami 24 351 xodim faoliyat yuritmoqda. Shulardan 2 438 nafarini ayollar tashkil qiladi.



“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ hamda uning tarkibiy korxonalaridagi xotin-qizlar masalalari bo‘yicha maslahat kengashlari tomonidan gender muvozanatni ta’minlash, tizim ayollarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, jamoada hamjihatlik muhitini shakllantirish, yetakchi ayollar safini kengaytirish bo‘yicha samarali ishlar amalga oshirildi. Shular bilan birga, Jamiyat kasaba uyushmasi hamkorligida ijtimoiy himoya, sport-sog‘lomlashtirish va madaniy-ma’rifiy yo‘nalishlarga ham alohida e’tibor qaratildi.



Joriy yilning 17-19 may kunlari kunlari "Ayollarning energetika sohasidagi o'rni: zamonaviy tendensiyalar" mavzuida o'tkazilgan forum doirasida doirasida Ijro apparati ayol xodimlari hamda tadbir ishtirokchilari uchun "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Xorazm hududiy filialida ijtimoiy-siyosiy faol va boshqaruvchanlik qobiliyatiga ega bo'lgan faol, lider xotin-qizlar faoliyatiga bag'ishlangan tadbir tashkil etildi.

Mazkur forumning 2-qismi Xorazm viloyatida davom ettirilib, forum qatnashchilari Xiva shahridagi temir yo'l vagzalida karnay-surnay sadolari ostida kutib olindi



Forum ishtirokchilari uchun "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Xorazm hududiy filiali ma'muriy binosida ijtimoiy-siyosiy faol va boshqaruvchanlik qobiliyatiga ega bo'lgan faol, xotin-qizlar faoliyatiga bag'ishlangan tadbir tashkil etildi.

Tadbir davomida, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Xotin-qizlar masalalari bo'yicha boshlang'ich tashkilot raisi S.Ibragimova tomonidan sohadagi yetakchilik va rahbarlik qobiliyati, va ma'naviy salohiyatini oshirish hamda jamiyatda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan ishlar va imkoniyatlar haqida forum ishtirokchilariga taqdimot nomoyish qildi.





Shu bilan birgalikda, Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, vazirlik va idoralar hamda nodavlat tashkilotlar o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritishlari yo'nalishi to'g'risida ma'ruzalar qilindi.





▶ Forum ishtirokchilari kichik majlislar zalida "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Xorazm hududiy filiali direktori S.Beregini bilan samimiy suhbat olib borishdi.



So'ngra Energetika sohasida uzoq yildan buyon o'z ish faoliyatini yuritib kelayotgan Yuldasheva Ma'mura tomonidan forum qatnashchilariga viloyatimiz hududida joylashgan podstantsiyalar va katta kuchlanishli tarmoqlar orqali elektr energiyasi bilan ta'minlangan hududlar haqida to'liq ma'lumot berdi.

- ▶ Tadbir ishtirokchilari elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi (ASKUE) faoliyati bilan hamda 24/7 rejimida o'z faoliyatini olib borayotgan 1154 ishonch qisqa raqamidan jismoniy hamda yuridik shaxslardan kelib tushayotgan murojaatlarni qabul qilish va ijobiy xal qilinishi borasida olib borilayotgan amaliy ishlar bilan yaqindan tanishdilar.





- ▶ "Ayollarning energetika sohasidagi o'rni: zamonaviy tendensiyalar" mavzuida an'anaviy forum doirasida ishtikchilar uchun Yangiariq tuman elektr ta'minoti binosida 2022 yilda yangi qurilgan o'quv poligonida elektromexaniklarni texnika xavfsizligi bo'yicha tadbir tashkil etildi.
- ▶ Tadbir davomida "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Xorazm hududiy filiali ayol xodimalari tomonidan tayanchga chiqish, elektron hisoblagichlarni almashtirish kabi ko'rgazmali jarayonlari namoyish qilindi.

